



## TARJIMA TURLARI VA ULARDAGI QIYINCHILIKLAR: OG‘ZAKI VA YOZMA TARJIMANING ASOSIY MOHIYATI, KETMA-KET, SINXRON, VISUAL TARJIMANING AFZALLIKLARI VA QIYINCHILI- KLARI

*Egammazarova Rushana Abdurashid qizi  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Tarjimonlik fakulteti talabasi  
[rushanaegammazarova362@gmail.com](mailto:rushanaegammazarova362@gmail.com)*

*Xolboboyeva Aziza Sherboboyevna  
O‘ZDJTU, “Ingliz tili amaliy tarjima”  
kafedrasi dotsenti Filologiya fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tarjima turlari va ulardagi asosiy qiyinchiliklarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda og‘zaki va yozma hamda ketma-ket, sinxron va visual tarjima tushunchalari haqida so‘z boradi. Tarjimaning bur necha turlari bo‘lib, ulardan asosiyлари quyidagilarni tashkil etadi: ketma-ket, sinxron va visual.

Kalit so‘zlar: tarjima turlari, tarjimani tasniflash mezonlari, og‘zaki, yozma, ketma-ket, sinxron, visual tarjima, asosiy qiyinchiliklari.

**Key words:** translation types, translation classification criteria, oral, written, consecutive, simultaneous, visual translation, main difficulties.

Tarjima – lisoniy, adabiy-estetik hodisa, so‘z san’ati, tarjimon esa ijodkordir. Tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta qurishdan iborat ijodiy jarayon, so‘z san’ati ekanligidadir. Tarjima so‘zi, hozirgi ma’nosidan tashqari bayon etish, matnni sharhlash, tushuntirib berish, tafsir, ma’noni chaqish, sodda qilib ifodalash kabi ma’nolarni ham ifodalaydi..

### Og‘zaki va yozma tarjimaning afzalliklari va kamchiliklari:

Og‘zaki va yozma tarjima ikki xil tarjima uslubi bo‘lib, ularning o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor. Quyida ushbu tarjima turlari orasidagi asosiy farqlar va har birining afzalliklari haqida ma’lumot beraman.

#### Og‘zaki tarjima.

Og‘zaki tarjima til vositasida bir nutqni og‘zaki shaklda bir tilga o‘girish jarayonidir. Bu turdagи tarjima tezkorlik va aniq talqin qilinishini talab etadi.

##### ➤ Afzalliklari:

➤ Tezkorlik . Og‘zaki tarjima real vaqtida amalga oshiriladi. Masalan, xalqaro konferensiylar, yig‘ilishlar yoki muzokaralarda tezkor tarjima talab qilinadi.

➤ Suhbat tabiiyligi.To‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot imkoniyati tufayli gapiruvchilar o‘zaro to‘sqliksiz fikr almashadilar.

➤ Sharoitga moslashuvchanlik. Og‘zaki tarjimon vaziyatga qarab nutq mazmuni ni moslashtirishi va talqin qilishi mumkin.

##### ➤ Kamchiliklari:

➤ Xatolar xavfi. Tezkor tarjima vaqtida xatolar yuzaga kelishi mumkin, chunki tarjimon fikrlarni real vaqtida tarjima qilishi kerak.

➤ Tayyorlanish qiyinligi. Ba’zan murakkab yoki texnik mavzularni tarjima qilishda oldindan tayyorgarlik talab etiladi.

**➤ Yozma tarjima.**

➤ Yozma tarjima matn shaklidagi hujjatlarni bir tilga o‘girish jarayonidir. Bu usul ko‘proq aniq va batafsil tarjimani talab qiladi

**➤ Afvalliklari:**

➤ Aniqlik. Yozma tarjima amalga oshirilayotgan tarjimon matnni qayta ko‘rib chiqishi, tahrir qilishi va kerak bo‘lsa, qo‘shimcha ma’lumotlarni qo‘sishi mumkin.

➤ Ma’lumotlarni saqlash. Yozma tarjima hujjatlar shaklida saqlanadi, bu esa tarixiy hujjatlar, shartnomalar va ilmiy maqolalar kabi materiallarni keyinchalik foydalananish uchun imkon yaratadi.

➤ Yuqori sifat. Yozma tarjimada yuqori sifat va aniq tarjimani ta’minlash uchun tahrirlovchi va korrektorlar jalb qilinishi mumkin.

**➤ Kamchiliklari:**

➤ Ko‘proq vaqt talab qiladi: Yozma tarjima ko‘proq vaqt talab qiladi, chunki tarjimon matnni diqqat bilan o‘rganishi va tarjima qilishi kerak.

➤ Ish hajmi. Uzoq yoki murakkab matnlarni tarjima qilish qiyinroq bo‘lishi mumkin, bu esa tarjimonlardan yuqori darajada bilim talab qiladi.

**Tarjima turlari: Ketma-ket tarjima.** Ketma-ket tarjima qilish bu bir tildagi og‘zaki axborot berilgandan so‘ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so‘zlovchining umumiyligi fikrlari yoki eng kamida asosiy abzasni tinglaydi va so‘ng tinglash chog’ida yozib olingan eslatmalar (notetaking) yordamida nutqini tarjima qiladi.

Tarjimon uchun kuchli xotira juda muhim, chunki ba’zi so‘zlovchilar bir necha gaplarni aytganlaridan so‘ng tarjimonga tarjima qilishni taklif qilishadi. Shunday qilib, ketma-ket tarjimada tarjima qilish so‘zlovchining nutqi tugagandan so‘ng amalgalashadi.

**Sinxron tarjima.** Sinxron tarjimada tarjimon maxsus xonada o‘tirgan holda qulqochinlar orqali so‘zlovchini tinglaydi va o‘sha vaziyatdayoq tarjima qiladi. Bunda tarjimon uchun muhim narsa nafaqat kuchli xotira balki mahorat va tez gapirish qobiliyatidir.

Konferensiyalarda tarjimonlar ma’lum bir vaqt shkalasi asosida ishlaydilar. Konferensiya vaqtida tarjimon delegate o‘rnida bo‘lib qoladi ya’ni “U dediki, o‘ylashicha, bu yaxshi fikr ekan” kabi gaplarni tarjima qilmaydi, u delegate nomidan gapiradi. Tarjima qilish chog’ida tarjimon o‘sha paytdagi muhitga moslashishi lozim ya’ni so‘zlovchi qanday ohangda gapirsa tarjimon ham shu ohangda gapirishi kerak.

**Vizual tarjima.** Vizual tarjimada ba’zi tarjimonlar oldindan nutqning yozma matni bilan tanishib chiqishadi, bu albatta tarjimonlar uchun yaxshi, lekin ba’zi holdarda buning imkoniy yo‘q. Bunday vaziyatda tarjimon o‘z mahoratini ishga solishi kerak.

Vizual tarjima qilish sinxron tarjimaga yaqinroqdir. Sinxron tarjimada vizual tarjima qilishning eng yuqori pog’onasi qo‘llaniladi. Vizual tarjimada tarjimon



so‘zlovchining yozma matndan tashqariga chiqib ketmayotganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Tarjimonlarda uchraydigan ba’zi qiyinchiliklar mavjud. Masalan, tarjimada qili shda grammatic muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Tilning grammatic tuzilishi uning sistemasidagi umumiy muhim jihatdir. Afikslar, grammatic qo‘sishimchalar va so‘z yasalishi, sintaktik modellar, so‘z tartibi, yordamchi so‘zlar va h.k. kabi tilning Grammatik tuzilish elementlari Grammatik yoki shakily ma’noni, leksik ma’nolarning aniq shaklini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Tarjima qilish jarayonida bu ma’nolarni ifodalash muhim muammodir. Tarjima qilish jarayonida tarjimon asosan gapning umumiy ma’nosiga e’tibor qaratadi va bu vaziyatda gap ichidagi so‘zlarning, idiomalarning aynan tarjima qilinayotgan tildagi muqobil variantini topishi kerak bo‘ladi, chunki agar so‘zma so‘z tarjima qilsa ma’nosni umuman o‘zgarib ketadigan holatlar judayam ko‘pdir.

Tarjimon tarjima qilish jarayonida so‘zlovchining fikrini tinglovchiga to‘g’ri va aniq yetkazishi uchun qo‘sishimcha kirish so‘zlar idiomalar va ohangdan foydalalishi mumkin. Bu tarjimonning mahoratiga bog’liq.

Sinxron tarjimonlikning ham ba’zi qiyinchiliklari bor. Kam holatlarda tarjimon ga nutqning yozma matni beriladi, ammo tarjimon faqatgina matnga qarab tarjima qili shi bu noto‘g’ri yndashuv bo‘ladi, chunki konferensiya davomida so‘zlovchilar qo‘sishimcha fikr bildirishlari mumkin va bunday vaziyatlarda tarjimon shu kabi holatlarga tayyor turishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, tarjima turlari va usullari juda xilma-xil bo‘lib, har biri o‘ziga hos afzalliklar va kamchiliklarga ega. Tanlangan usul yoki tur tarjiima maqsad, auditoriya ehtiyojlari va matnning murakkabligiga bog’liq. Ushbu turlarning barchasi tarjimonlardan yuqori mahorat, bilim va ijodiy yondashuv talab qiladi, bu esa tarjima jarayonining murakkab va ko‘p qirrali eekanligini ko‘rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тўхтасинов И.М. Таржимон тайёрлашда касбий компетенцияларни эквивалентлик ҳодисаси асосида ривожлантириш. Пед. фан. док. дисс. автореф. –Т: 2018.69 б.

2. Yo‘ldoshev U.R. Tarjima nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.

3. G‘afurov I, Mo‘minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – T.: Tafakkur – Bo‘ston, 2012 -126 b .

4. Kholboboeva A. S. General features of tourism advertisement discourse //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – C. 261-263.